



PED AGOGIK MAHORAT

6
2024



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

6-son (2024-yil, iyun)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2024

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2024, № 6

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universiteti, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Hamroyev Aljon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbanova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To‘xsanov Qahramon Rahimbo耶evich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nurullo耶ev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 6, 2024

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закириевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор

Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Андрценко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)

Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)

Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)

Хамроев Алижон Рузикович, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Таджиходжаев Закирходжа Абдулсаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоной Сайджановна, доктор филологических наук, профессор

Дурдиев Дурдимурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор

Чарiev Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор

Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор

Шомирзаев Махмутмурод Хуромович, доктор педагогических наук, профессор

Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор

Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Тухсанов Каҳрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор

Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор

Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент

Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)

Навруз-заде Лайли Бахтиёрова, доктор философии экономических наук (PhD), доцент

Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

PEDAGOGICAL SKILLS
The scientific-theoretical and methodical journal
№ 6, 2024

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov

Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov

Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)

Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova

Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)

Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev

Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov

Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdumurod K. Durdiev

Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbanova

Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov

Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova

PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev

PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev

PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade

PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva

PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
IQTISODIY TA'LIM VA TARBIYA			
1.	НИЯЗОВ Миршод Хаятovich	Необходимость предпринимательства для студентов: точки зрения и конфликты	7
INKLYUZIV TA'LIM			
2.	ADILOVA Madinaxon Shamsidinovna	Inklyuziv ta'limga talabalarni pedagogik faoliyatga psixologik tayyorgarligini shakllantirish	12
3.	TOYIROVA Nazokat Moxirovna	Inklyuziv ta'limga bolalar uchun ishtirok etish, o'rganish va rivojlanish modeli	17
4.	XAFIZOVA Umida Juraboy kizi	Analysis of some memorizations for the development of inclusive training of students on the basis of a competency approach	21
TA'LIM MENEJMENTI			
5.	BAYMENOVA Kamshat Saparbayevna	Pisa xalqaro baholash tadqiqotlari – ta'limga sifatida muhim qadam	26
6.	EGAMBERGANOV Izzatbek Shavkat o'g'li	Ta'limga klasteri ilmiy-pedagogik muammo sifatida	30
7.	Hasanova Sabohat	Pirls xalqaro baholash dasturining ahamiyati nimada?	34
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR			
8.	AKBAROVA Ravzaxon Abdullahayevna,	Exploring the challenges of designing role-play activities	40
9.	ALLABERGANOVA Muyassar Rimberganovna, ASHIROVA Anorgul Ismoilovna	Oliy ta'limga muassasalarida fanlarni smart texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	45
10.	KENJAYEV Azizbek Rustamjon o'g'li, OBILOV Muzaffar Odiljon o'g'li	Improving writing competence of 10th grade students based on scaffolding techniques	50
11.	MUMINOV Komiljon Axmadjonovich	Kreativ kompetentga yo'naltirilgan innovatsion ta'limga texnologiyalaridan foydalanish tizimlari	55
12.	NAZAROV Farrukh Fakhriddinovich	Improving the methodology of teaching computer science and information technology among primary school teachers	61
13.	NAVRO'ZOV Ikrom Nurullayevich	Ta'limga jarayonini loyihalashning o'ziga xos tomonlari	65

RAQAMLASHTIRILGAN TA’LIM			
14.	DAUEKEEVA Guljaxan Uralbaevna, AJIEVA Muxabbat Baxtibaevna, BEGMANOVA Gavhar Elbaevna	Kimyo o’qituvchilarini tayyorlash o‘quv metodik tizimi mobil dásturiy ilovalar vositasida takomillashtirish muammo sifatida	69
15.	KAMALOVA Nilufar Ilxomovna	Talabaraga pythonning pilow modulidan foydalanish ko’nikmalarini shakllantirish metodikasi	73
16.	KARIMOV Feruz Raimovich	O‘quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini takomillashtirishda o‘yinlashtirilgan ta’lim platformalarining ta’siri	79
17.	KUZIYEV Otobek Cho’liyevich	Axborot modellari va ularning turlari asosida talabalarda axborot modellashtirish ko‘nikmasini shakllantirish	83
18.	XALILOVA Laylo Ravshanovna	Raqamli texnologiyalarning xorijiy til o‘qitishga integratsiyalash imkoniyatlari	87
MA’NAVIYAT VA TARBIYA			
19.	ISAYEVA Guli Parpiyevna	Barkamol shaxs tarbiyasida axmad yassaviy xikmatlaridan foydalanishni psixologik imkoniyatlari	91
20.	VALIYEV Abdurafik Abduqaniyevich	Inson qadri ulug‘langan yurtda vatanparvarlik tuyg‘usining ma’naviy ahamiyati	95
21.	БОЙКУЗИЕВА Рано Каримовна	Ёшларда тарихий онг ва тарихий хотирани шакллантиришда маънавий мероснинг ўрни	100
22.	БОЗОРОВ Зайниддин Аширович	Шарқ мутафаккирлари шахс фуқаролик маданияти тўғрисида	105
23.	XAJIYEVA Maqsuda Sultonovna, RAHIMOVA Shoira Adilbekovna	Unsurulma’oliy kaykovusning yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga doir qarashlari	111
24.	O’RINOV Shamshod Komilovich, NE’MATULLAYEVA Shahrizoda Muhammadiy qizi,	Madaniyat va san’at sohasida xorijiy modellar asosida milliy modellarni tatbiq etish jarayonlari	115
25.	AZIMOVA Muhayyo Murotdilloyevna	Kichik məktəb yoshdagı o‘quvchılarda tarixiy yodgorliklar vositasida milliylikni shakllantirish omillari	119

**MADANIYAT VA SAN’AT SOHASIDA XORIJIY MODELLAR ASOSIDA MILLIY
MODELLARNI TATBIQ ETISH JARAYONLARI**

O’rinov Shamshod Komilovich,

Buxoro davlat universiteti, Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi

Ne’matullayeva Shahrizoda Muhammadiy qizi,

Madaniyat va san’at muassalalarini tashkil etish hamda boshqarish

ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabalasi

Mazkur maqolada madaniyat va san’at sohasida xorijiy modellar asosida milliy boshqaruvin modellarini ishlab chiqish hamda madaniyat va san’at sohasiga tatbiq etish masalalari haqida fikr yuritiladi. Maqola asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlari hamda soha mutaxassislarini fikrlarini tahlil qilishdan boyitilgan.

Kalit so‘zlar: Model, madaniyat, san’at, cult.cover.uz, Bo‘zatov, Nihol, madaniyat markazi, to‘garak, auditoriya, KPI.

**ПРОЦЕССЫ ВНЕДРЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ МОДЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ
ЗАРУБЕЖНЫХ МОДЕЛЕЙ В ОБЛАСТИ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА**

В данной статье рассматривается разработка национальных моделей управления на основе зарубежных моделей в сфере культуры и искусства и их реализация в сфере культуры и искусства. Статья главным образом дополнена анализом указов и постановлений Президента Республики Узбекистан и мнениями экспертов отрасли.

Ключевые слова: Модель, культура, искусство, cult.cover.uz, Бозатов, Нихол, культурный центр, клуб, публика, КПИ.

**PROCESSES OF IMPLEMENTATION OF NATIONAL MODELS BASED ON FOREIGN
MODELS IN THE FIELD OF CULTURE AND ART**

This article discusses the development of national management models based on foreign models in the field of culture and art and their implementation in the field of culture and art. The article is mainly enriched by the analysis of decrees and decisions of the President of the Republic of Uzbekistan and the opinions of industry experts.

Keywords: Model, culture, art, cult.cover.uz, Bozatov, Nihol, cultural center, club, audience, KPI.

Xorijiy modellar resruslarini samarali taqsimlash, tomoshabinlarni jalb qilish va barqaror madaniy rivojlanish haqida asosiy tushunchalarni taqdim qilib qolmasdan, bu saboqlar O‘zbekiston Respublikasining o‘zining boy madaniy merosini saqlash va targ‘ib qilishni ta’minlagan holda moslashish va inovatsiyalar yaratish imkonini beradi. Xalqaro madaniy menejmenti bilan bilim va tajriba almashish O‘zbekistonning madaniy sektorini mustahkamlaydi, hamkorlikni rivojlantiradi va jahon miqyosida tan olinishiga yordam beradi. O‘zbekistonda madaniy tashabbuslarning o‘sishi va xilma-xilligiga turtki bo‘ladi. Ilgo‘r tajribalarni qo‘llash orqali fikr almashish va xorijiy modellaridan o‘rganish nafaqat O‘zbekiston madaniy boshqaruvin amaliyotini boyitibgina qolmay, balki madaniy bilim va merosni globallashinuviga ham o‘z hissasini qo‘shadi. Madaniyatni boshqarishda xorijiy modellarni integratsiyalash strategiyalari hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini boshqarishda xorijiy modellarni qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar olib borilib ushbu ishimiz ham shulardan biri. Bulardan ko‘zlangan maqsad madaniy boshqaruvni yaxshilash uchun tushuncha va strategiyalarni olishga qaratilgan. Asosiy e’tiborlardan biri sanoatda inovatsiyalar va ilg‘or tajribalarni rivojlantirish uchun madaniy boshqaruvga xorijiy modellarni integratsiya qilishdir. O‘zbekiston boshqa mamlakatdagi muvaffaqiyatli modellardan o‘rganib, ushbu strategiyalarni o‘zining madaniy va san’at sohasida moslashtirish va qo‘llashni maqsad qilgan. Madaniyatni boshqarishda xorijiy modellarni integratsiyalash strategiyalari boshqa mamlakatlardan muvaffaqiyatli bo‘lgan yondashuvlar va metodologiyalarni o‘rganish va tushunishni o‘z ichiga oladi. Bunga tegishli jihatlarni O‘zbekistonda qo‘llash uchun tashkiliy tuzilmalar, moliyalashtirish mexanizmlari va auditoriyalarni jalb qilish strategiyalarini tahlil qilish kiradi.

Yuqorida gilarni inobatga olgan holda o‘zimizda mavjud imkoniyatlar va ilg‘or tajribalarni o‘zaro birlashtirib soha rivoji uchun bir muncha takliflar keltirib o‘tmochimiz. Dastlab, madaniyat va san’at

sohasini va joylarda tashkil qilingan madaniyat markazlarini keng aholi qatlami orasifa targ‘ib qilish va uning o‘rnini ko‘tarish maqsadida bu sohani ta’lim bilan o‘zaro integratsiya qilishni taklif qilamiz.

Endi bularni madaniy soha bilan nima aloqadorligi bor deb o‘ylashingiz mumkin, keling buni ham atroflicha izohlab o‘tsak: bugungi kunda yurtimizda tayanch sohalar bor. Ichki ishlar vazirligi tizimidagi Ichki ishlar akademiyasi va ular uchun joylarda tashkil qilingan tayanch Ichki ishlar akademiyasi huruzidagi akademik litseylar, yoki Tibbiyot institutlari qoshidagi tibbiyot kolejllari. Bularni tashkil qilishdan maqsad sohani rivojlantirishda boshqa sohalardan ko‘ra bir qadam oldinda bo‘lish va vaqtin qisqartirib yuqori natijaga qisqa vaqt oralig‘ida erishish. Masalan avvallari Ichki ishlar akademiyasiga o‘qishga kirish uchun umumiy tanlov e‘lon qilinar edi. Talabgor hisoblangan yoshlardan umumiy tanlov asosida kuch sinashar va kuchlilari talabalik maqomiga erishgan bo‘lardi. Ammo keyinchalik umumiy tanlov asosida o‘qishga qabul qilingan yoshlarga bu tizim haqida dastlabki ma‘lumotlarni berish va o‘zi bu qanday soha ekanligini to‘liq tushuntirish uchun bir yildan ortiqroq muddat vaqt ketardi. Ammo keyinchalik tashkil qilingan “Temurbeklar maktabi” va “Ichki ishlar vazirligiga qarshli litseylar”ning tashkil qilinishi soha rivojida yana bir pog‘onaga ko‘tardi. Endi Ichki ishlar akademiyasiga o‘qishga kirmqchi bo‘lgan talabgorlar faqat Ichki ishlar vazirligi huzuridagi akademik litseylarni bitirgan talaba-yoshlarning qabul qilinishi qonun bilan tasdiqlandi. Bu kelgusida o‘qitish jarayonlarida ustozlar uchun bir muncha yengilliklar yaratish bilan bir qatorda vaqtini ham tejashta va bilim sifatining oshishiga ham o‘zining ijobjiy ta’siri ko‘rsatdi.. Xuddi shu tajribani madaniyat sohasida qo‘llasak, bizningcha juda yaxshi natijalarga erishgan bo‘lar edik. To‘g‘ri, aytishingiz mumkin Musiqa va san’at maktablari borku, ularning vazifasi emasmi bu deb, bu fikrga to‘liq qoshilgan holda shuni ta’kidlab o‘tish joizki, agar “Kamoliddin Behzod nomidagi madaniyat va san’at institutiga “faqat Musiqa va san’at maktabini tugatgan yoki Madaniyat markazlarida mutasil ta’lim olib kelayotgan yoshlarni qabul qilish to‘g‘risida qonun hujjati tas‘diqlansa, umumiy tanlov emas faqat madaniyat markazlarida tahsil oлган yokida Musiqa va san’at maktablarini tugatgan o‘quvchi yoshlardan qabul qilinsa umumiy tanlov asosida qabul qilingan talabalardan ko‘ra savodliroq va sohadan xabardor bo‘lgan yoshlarni ta’lim olishi va ularga o‘rgatish ham bir muncha osonroq kechgan bo‘lar edi. Nota nima ekanligini ham bilmaydigan talabandan ko‘ra dastlabki ilmga ega bo‘lgan yoshlarni qabul qilish sohaning yorqin istiqbolidan darak beradi. Biz umumiy tanlovgan qarshi emasmiz, agar haqiqatdan ham talabgor yoshlardan san’at sohasini tanlaydigan bo‘lsa, ularda ikkita yo‘l bo‘ladi. Biri Musiqa va san’at maktabida tahsil olishi, boshqasi esa madaniyat markazlaridagi turli to‘garaklardan birining muttasil ishtirokchisi bo‘lishi talab qilinadi. Bu orqali biz bir emas, bir nechta muanmolarga yechim topgan bo‘lamiz.

- Birinchidan, aholi orasida madaniyat markazlarining obro‘sini o‘sishiga zamin yaratsak;
- Ikkinchidan, keng xalq ommasini madaniyat markazlariga oson jalb qilamiz;
- Uchinchidan, ta’lim sohasida ham ilmli yoshlarning ko‘payishiga sabab bo‘lamiz;
- To‘rtinchidan, o‘rgatish uchun sarflandigan vaqt ham mablag‘ ham tejalishi;
- Beshinchidan, madaniyat muassassalarining keng faoliyat yuritishiga va ulaga tashrif buyuruvchilar soning ortishiga ham sabab bo‘lamiz.

Bunga qo‘shimcha ravishda ularni faoliyatida yana bir yengillik qilish maqsadida, keyingi yana bir taklifni keltirib o‘tmoqchimiz. Barchamizga tanish hisoblanib hozirda bu tizimdan foydalanib ko‘rmagan biror shaxs bo‘lmasa kerak. Bu “my.gov.uz” tizimi. Unda siz foydalanishingiz mumkin bo‘lgan barcha sohalar mavjud. Ta’lim tizimidan tortib soliq hujjatlarigacha. Bu tizim orqali yagona elektron hukumat tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Biz ham shunga o‘xshash madaniyat sohasida yagona interaktiv davlat tizimni shakllantirish kerak deb o‘ylaymiz. Bu tizim orqali madaniyat markazlarining obro‘sini ham bir qadar yuksalgan va ishslash sifati ham ancha yaxshilangan bo‘lar edi. Bu qanday tizim ? savol tug‘ilishi tabiiy. Madaniyat vazirligi tomonidan “Cul.Cover.uz” sayti tashkil qilinsa va barcha madaniyat muassassalarini birlashtirsa, faqat bu tizimda madaniy muassassalar xizmatlaridan foydalangan ishtirokchilarning online ro‘xyati yuritiladi. Ya’ni siz bu tizimga kirishingizdan oldin “One ID” tizimida qanday ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsangiz, xuddi shunday tartibda ro‘yxatdan o‘tib berilgan savollarga javob berasiz va o‘zingizning electron qaydnomangizni yaratasisiz. Bu qachon va qanday qilaman va bu men uchun manfaatlimi deb o‘ylayotgan bo‘lsangiz kerak. Qachonki madaniyat markazlariga borganingizda yokida ularning biror bir xizmatidan foydalanganingizda siz tizimga kirish uchun avval ro‘xyatdan o‘tgan bo‘lishingiz so‘raladi. Siz farzandingizni san’at vakili bo‘lishini istaysiz deylik , buning uchun avvalo siz uni kelajagi uchun qayg‘ura boshlaysiz, yechim sifatida biz sizga madaniyat markazlarini ko‘rsata olamiz .taxminan bir ota-onan 10 yoshli farzandini qo‘shiq aytishga bo‘lgan mahoratini ko‘rib uni rivojlantirish yo‘llarni izlay boshladи. Yaxshiroq Vocal o‘qtuvchisini qidirdi, ammo deyarli uni qoniqtiradigan va stabilniy dars vaqtin bo‘lgan biror ustoz topa olmadi. Xuddi shu nuqtada madaniyat markazlari muanmoning yaxshi yechimi bo‘la oladi. Faqat bugungi kunda joylarda tashkil qilingan madaniyat markazlari va ularda tashkil qilingan to‘garaklar haqida ko‘pchilikning ma‘lumotga ega emasligi sohada faoliyat olib borayotgan xodimlarning o‘z ishiga bo‘lgan

sovuoqkon munosabati va layoqatsizligi bilan o’lchanadi. Buning asosiy sabablaridab biri bugun madaniyat sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlarning ko‘pchiligi taxminan 67 %i mutaxsisslik bo‘yicha bu sohadan ancha yiroq ekanligi sabali sohada qator yuzaga kelayotgan muanmolarga yechim berilmayotganligi bu esa ularda yetarli bilim va ko‘nikma mavjud emasligi bilan izohlanadi. Ammo yuqoridagi ota-onaning muanmosi uchun ajoyib yechim bu madaniyat markazlari , ular o‘quvchi-yoshlarga qulay bo‘lgan vaqtarda va kunlarda tashkil qilinib, ma’lum bir disiplina orqali tashkil qilinadi. Ya’ni to‘garakda dars o‘tayogan ustozning kunlik, haftalik, oylik ish-rejalari bor bo‘lib, ma’lum bir reja asosida to‘garak qatnashuvchilariga dars jarayonlarini olib boradi. Biz yuqorida ta’kidlagan tizim esa nafaqat muassasada ta’lim olayotgan iqtidorli yoshlarni faoliyatini sarhisob qiliadi, balki kelguvsida ularni yuqori natijalarga erishishlari uchun ham zamin vazifasini bajaradi. Talim oluvchi ya’ni bolaning “Tug‘ulganlik haqidagi guvohnomasi” orqali dastlab u uchun yuqoridagi tizimda electron baza ochiladi. Uning barcha ma’lumotlari kiritilib, to‘liq ro‘yxatdaan o‘tkaziladi. Shundan so‘ng u Madaniyat markazidagi “Vokal” yoki “An’anaviy xonandalik” to‘garaklarida tahsil olishni boshlaydi. Ta’limning dastlabki oyalarida umumiyl bilimlar o‘rgatilib, joylarda tashkil qilinayotgan turli ko‘rik-tanlovlarga to‘garak rahbarining ko‘rsatmasi bilan ishtiroki boshlanib, turli tanlovlarda qatnasha boshlaydi. Bolasida o’sishni ko‘rayotgan ota-onan farzandining yutuqlari to‘g‘risida tanish oshana-og‘aynisida hayjon va qiziqish bir o‘rinda faxr tuyg‘usi bilan so‘zlab beradi. Boshqalarning ham madaniyat markazlariga bo‘lgan qiziqishlari ortishiga sabab bo‘ladi.

Savol tug‘ilishi tayin! Bu tizim bizga nima beradi.

Bu tizimni ishlab chiqishdan asosiy maqsad madaniyat markazlariga aholi ayniqla madaniyat va san’at turli yo‘nalishlariga qiziqishi bo‘lgan yoshlarni jalb qilishdan iborat bo‘ladi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, jalb qilingan yosh kelgusida o‘zi tanlagan to‘garakda faol ishtirok etib, ishlab chiqilgan tizimga erishgan natijalarini yuklay boshlaydi. Har bir yuklangan kontent o‘z navbatida bugungi kunda KPI deb yuritiladigan ballni yig`ib boradi. Tizim esa har bir yuklangan content uchun avtomatik ravishda to‘garak qatnashchisiga ball bera boshlaydi. Kurs to‘garagi to‘liq tamomlangandan keyin ushbu yuklangan kontentlar orqali yig`ilgan ball bilan bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan alohida iqtidor talab etiladigan OTM muassasalarida test sinovlari olib tashlanganligini inobatga oлган holda o‘z yo‘nalishining bakalavr darajasiga qabul qilinadi. Mutaxassislarining fikridan so‘ng tizim ishga tushirilgan so‘ng , tizim 3 yil davomida content to‘playdi. Uch yildan so‘ng esa birinchi jarayon boshlanadi, ya’ni dastlab qabul qilingan a‘zolar 3 yil mobaynidaa o‘z ishlarini tizimga yuklab borishadi. Aytaylik, ushbu “Cult.Cover.uz” tizimi 2025-yil sentabr oyida ishlab chiqildi. Yangi bir tizim haqida avvalo OAVda, shuningdek turli ijtimoiy tarmoqlarda va madaniyat muasassalarida ushbu tizim haqida atroflicha ma’lumotlar keng xalq ommasiga taqdim qilib boriladi. May oyidan boshlab to‘garak qatnashchilarning ma’lumotlari kiritilib boriladi. Ushbu jaraayon 2-3 yil davom etadi. Birinchi 2-3yilni bitirgan o‘quvchilar Ballari Respublika bo‘yicha hisoblanadi va OTMga qabul qilinadi. OTM kvotasi 2028-yilda “An’anaviy xonandalik” yo‘nalishida 15ta o‘rin berilgan bo‘lsa, shundan 5 tasi davlat grantiga ajratilgan taqdirda , qolgan 10tasi shartnoma asosida qabul uchun qoldiriladi. Davlat budjeti asosida o‘qishga qabul qilinadigan o‘quvchilarning kontentida “Nihol”, “Baxshichilik”, “Bo‘zatov” kabi festivallardan faxrli o‘rirlarni oлган o‘quvchilar qabul qilinsa , qolgan 10 tasi mazkur tizim asosida qabul qilinadi. Bunda inson omilining aralashmasligi tizimning shaffofligini va adolatli bo‘lishini ta’minlaydi. Tizimda shunday mexanizm shakllantiriladi, agar o‘quvchi oliy ta’lim dargohiga kiradigan darajaga yetib borganda , tizim unga avtomatik ravishda oliy o‘quv yurtiga kirish uchun maxsus sertifikat taqdim etadi. Bu sertifikat orqali o‘quvchi Oliy ta’lim muassasasidagi ijodiy imtihonlardan ozod etilib, to‘planadigan ijodiy imtihon balining maksimal dajasi beriladi. Yagona interaktiv xizmatning joriy qilinishi va u respubkila bo‘yicha tashkil qilinishi mamlakatimizning eng chekka hududida istiqomat qiladigan va muntazag madaniyat markazlaridagi to‘garakka qatnashadigan o‘quvchi-yoshlarning imkoniyat darajalarini shaharda yoki bo‘lmasa, markazda yashaydigan yoshlar bilan tenglashtiradi.

Mazkur tizim orqali qabul qilingan talabaning to‘garakda tayyorlagan to‘garak rahbari ham o‘z navbatida Madaniyat vazirligi tomonidan tegishli tartibda mukofotlanishi yo‘lga qo‘yiladi. Bu jarayon to‘garak rahbari, madaniyat markazi rahbari, bo‘lim rahbarining faoliyat samaradorligiga ijodiy ta’sir qilishi belgilanadi. Mazkur tizimda korrupsiyani oldini olish maqsadida berildigan KPI bali faqat Madaniyat Vazirligi orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Sabab, madaniyat vazirligining quyi bo‘g‘ini rahbari subardinatsiya saqlagan holda hech qachon o‘zning “taklifi”ni vazirlikka “taqdim” eta olmaydi.

Mazkur taklifimiz, bugungi kunda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot yoki raqamlashtirish jarayonlariga to‘liq mos keladi hamda madaniyat markazlarini jamiyat hayotidagi mavqeini yanada oshirishiga, madaniyat va san’at sohasiga har qanday xarakterdagи “oliftalar” yoki san’at yoki madaniyatdan umuman xabari bo‘lmaganlarni uzoqlashtiradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Prezidentining 2018-yil 18-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasi milliy madaniyatini yanada rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldaggi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori.
3. Mirziyoev Sh. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi // “Xalq so‘zi”. 2017-yil 4-avgust.
4. To‘ychiyeva.S.Shaxs ijtimoiy faolligi va ma’naviy madaniyat.Toshkent. Milliy ensiklopediya ilmiy nashriyoti.2016.
5. Urinov, Sh K. "The main criteria of cultural centers in the formation of creative ability." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 3.5 (2023): 52-59.
6. O‘rinov K, Sh, and Bozorboyeva G.. "Madaniyat sohasida pablik rileyshnz (jamoatchilik bilan aloqalar) va reklama." *Technical science research in uzbekistan* 1.4 (2023): 217-224.
7. O‘rinov, SH K., and E. Sultonmurodova. "Menejerning madaniyat sohasidagi kasbiy malakasi, uslublari va rejalashtirish." *Technical science research in uzbekistan* 1.4 (2023): 225-230.
8. O‘rinov, K.Sh. "Loyiha menejmentining asosiy tamoyillari." *Technical science research in uzbekistan* 1.4 (2023): 136-143.
9. Ne'matullayeva, Sh. "Madaniyat markazlarining professional jamoalar bilan hamkorlikni tashkil etish masalalari." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 2.3 (2023): 25-29.
10. O‘rinov, K.Sh, and S. Sadullayeva. "Muzeyunoslik istiqbollari." *ijodkor o‘qituvchi* 3.26 (2023): 97-101.
11. Orinov, Sh K., and S. Rozimurodova. "Maqom San’atiga E’tibor Milliy San’atimizga E’tibor." "Online-conferences" platform. 2023.
12. O‘rinov, Sh K., and G. Halimova. "Havaskorlik badiiy jamoalari tushunchasi va funksional vazifikasi." *International conferences*. Vol. 1. No. 2. 2023.
13. O‘rinov, K. Sh, and M. Ismoilova. "Boshqaruv konsepsiysi va asosiy tushunchalar." *Pedagogs jurnali* 26.2 (2023): 62-64.
14. O‘rinov K. Sh, and M. Hasanova. "Boshqaruv madaniyati tarkibi funksiyalari mezonlari-madaniyat markazlari misolida." *PEDAGOGS jurnali* 26.2 (2023): 65-66.
15. O‘rinov K Sh, and N. Jahongirova. "O‘zbekistonda teatr faoliyatida marketingning rivojlanishi." *Pedagogs jurnali* 26.1 (2023): 161-162.

**KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O'QUVCHILARDA TARIXIY YODGORLIKLER
VOSITASIDA MILLIYLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI**

*Azimova Muhayyo Murotdilloyevna,
Buxoro davlat universiteti mustaqqil izlanuvchisi*

Ushbu maqolada yoshlarni milliylik ruhida tarbiyalash, vatanparvanparvarlik, milliy o'zlik, milliy ong, milliy g'ururni shakllantirish hamda tarixiy yodgorliklar vositasida milliylikni shakllantirish buning uchun ularda yodgorliklarga bo'lgan qiziqishni uyg'otish maqsadida ko'proq ichki turizmga jalg qilish, tarixiy shaxslar faolyati bilan yaqindan tanishtirish ularning vatan ravnaqi yo'lida olib borgan jonkuyarliklari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: milliylik, yosh avlod, vatanparvarlik, milliy ong, milliy o'zlik, milliy mafkura, milliy g'urur, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat, madaniyat, buniyodkorlik, yodgorlik.

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОСТИ ЧЕРЕЗ ИСТОРИЧЕСКИЕ ПАМЯТНИКИ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

В данной статье воспитание молодежи в духе национализма, формирование патриотизма, национальной идентичности, национального самосознания, национальной гордости, а также формирование национализма через исторические памятники, с целью вызвать у них интерес к памятникам, привлечь больше внутреннего туризма, исторических памятников. деятели. Более подробное описание их деятельности написано об их энтузиазме по поводу развития страны.

Ключевые слова: национальность, молодое поколение, патриотизм, национальное сознание, национальная идентичность, национальная идеология, национальная гордость, образование, духовность, культура, творчество, памятник.

FACTORS OF NATIONALITY FORMATION THROUGH HISTORICAL MONUMENTS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

In this article, education of young people in the spirit of nationalism, formation of patriotism, national identity, national consciousness, national pride, and formation of nationalism through historical monuments, in order to arouse their interest in monuments, attract more domestic tourism, historical figures A closer introduction to their activity is written about their enthusiasm for the development of the country.

Key words: nationality, young generation, patriotism, national consciousness, national identity, national ideology, national pride, education, spirituality, culture, creativity, monument.

“Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarmizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”, deydi Shavkat Mirziyoyev.

Ma'lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvni kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamoni bilan singdirilyapti.

Darhaqiqat hozirgi yosh avlodni tarbilashda millilikni ular ongiga singdirish joiz buning uchun bizi larga milliyligimizdan yodgorlik bo'lib qolgan tarixiy yodgoliklar, tarixiy shaxslarning vatan ravnaqi yurt tinchligi yo'lida olib borilgan fidokorona mehnati hamda ular yozgan asarlari juda qo'l keladi, zero xalqimiz aytganidek “O'tmishtsiz kelajak yo'q”. Milliylik – o'z millatini ulug'lash va uning manfaatini himoya qilish, milliy g'urur va milliy nafsoniyat tuyg'ulari, o'z tili, adabiyoti, san'ati va madaniyati, dini, tarixi va urfodatlari, rasm-rusumlari, bayram-sayillari, bir so'z bilan aytganda, madaniy-ma'naviy qadriyatlarni qadrlash, o'zi tug'ilib voyaga yetgan diyorini ardoqlash, uning tabiatini, daryolari, ko'llari, musaffo osmoni bilan faxrlanish tuyg'usi. Milliylik bir millatga mansub kishilarining ijtimoiy-etnik barqarorligini ta'minlovchi buyuk qudratdir.

Milliy ong – millatning mavjudligi uning tarixiy taraqqiyoti va istiqboli bilan bog'liq omil. U millatning shakllanishi, taraqqiy etishi va abadiyligini ta'minlaydi. Milliy ong millatning o'zi bilan birga